



O'ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG'URTA MUKOFOTLARI VA TO'LOVLARI DINAMIKASINING STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLILI

A STATISTICAL AND ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE DYNAMICS OF PERSONAL INSURANCE PREMIUMS AND PAYOUTS IN UZBEKISTAN

**¹Bazarov Zakir
Xonqulovich**

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Sug'urta ishi" kafedrası
dotsenti, PhD., E-mail: b.zakir@tsue.uz

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida shaxsiy sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari dinamikasi chuqur statistik va ekonometrik jihatdan o'rganilgan. Tadqiqot davomida 2015-2024-yillar davomida yig'ilgan rasmiy statistik ma'lumotlar asosida shaxsiy sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Sug'urta mukofotlari hajmi, to'lovlar miqdori, aholining sug'urtalash darajasi va o'sish tendensiyalari aniqlanib, ularning o'zaro bog'liqligi regression modellar yordamida tahlil qilindi.

Eng. - This article presents an in-depth statistical and econometric analysis of the dynamics of personal insurance premiums and claim payments in the Republic of Uzbekistan. The study is based on official statistical data collected over the period from 2015 to 2024, and examines key indicators of the personal insurance market. The volume of insurance premiums, the amount of claim payments, the level of population coverage, and growth trends have been identified and analyzed. Their interrelationships were examined using regression models.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ sug'urta, shaxsiy sug'urta, hayotni sug'urtalash, tibbiy sug'urta, qayta sug'urta, moliyaviy barqarorlik, sug'urta to'lovlari, sug'urta mukofoti, sug'urta shartnomalari, sug'urta majburiyatlari, sug'urta tashkiloti ustav kapitali, sug'urta tashkiloti investitsiyalarni o'sishi, ekonometrik model.

❖ insurance, personal insurance, life insurance, health insurance, reinsurance, financial stability, insurance payments, insurance premium, insurance contracts, insurance obligations, authorized capital of an insurance organization, growth of investments in an insurance organization, econometric model.

Kirish.

Global iqtisodiyotda yuz berayotgan o'zgarishlar, moliyaviy xavf-xatarlarning ortib borishi va pandemiya kabi noaniqliklar fonida fuqarolarning shaxsiy moliyaviy xavfsizligini ta'minlash dolzarb masalalardan biriga aylandi. Ayniqsa, shaxsiy sug'urta sohasi — ya'ni fuqaroning hayoti, sog'lig'i, mehnatga layoqatliligi va boshqa shaxsiy manfaatlariga

taalluqli risklarni qoplashga xizmat qiluvchi moliyaviy mexanizm — aholining ijtimoiy himoyasini mustahkamlovchi muhim vositaga aylanmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribasi ko'rsatadiki, shaxsiy sug'urta institutining keng qamrovli va barqaror faoliyati jamiyatda xavfsizlik muhitini kuchaytiradi, moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi va aholi turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham shaxsiy sug'urtaning ahamiyati yildan yilga ortib bormoqda. Mamlakatda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, aholining huquqiy va moliyaviy savodxonligining oshib borishi, sog'liqni saqlash va pensiya tizimida kuzatilayotgan muammolar fonida ushbu yo'nalishga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'z chiqishlarida sug'urta bozorining zamonaviylashtirilishi, uning fuqarolar manfaatlariga xizmat qilishi zarurligini bir necha bor ta'kidlab o'tgan. Jumladan, 2022-yil 28-yanvardagi Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagilarni qayd etdilar:

"Aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xavfsizligini oshirish uchun sug'urta xizmatlarini yanada kengaytirish va zamonaviy tizimlar asosida takomillashtirish zarur."

Biroq, shaxsiy sug'urta xizmatlarining rivojlanishi va ommabopligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator omillar — fuqarolarning ishonch darajasi pastligi, xizmat sifati va turlari yetarli darajada diversifikatsiyalanmaganligi, sug'urta mukofotlari va to'lovlari o'rtasidagi nomutanosiblik, ma'lumotlar ochiqqligining pastligi — sohaning salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda.

Shaxsiy sug'urta mukofotlari va to'lovlarining yillik o'zgarishlari, ularning o'zaro nisbati, real sektordagi ahamiyati va aholi daromadlari bilan bog'liqligi — bu yo'nalishdagi chuqur iqtisodiy tahlilga asos bo'ladigan muhim indikatorlardir. Ayniqsa, ushbu ko'rsatkichlarning statistik dinamikasini aniqlash orqali sohaning mavjud rivojlanish tendensiyalarini ochib berish, tizimdagi muammolarni aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi. Bu esa nafaqat sug'urta kompaniyalari, balki siyosat ishlab chiquvchilar va iqtisodiy tadqiqotchilar uchun ham dolzarbdir.

Shu boisdan, mamlakatimiz sharoitida shaxsiy sug'urta mukofotlari va to'lovlari dinamikasini chuqur o'rganish, ularning

iqtisodiy tizimdagi o'rnini tahlil qilish, aholi va biznes uchun qanday foyda keltirayotganini anglash bugungi kunning muhim ilmiy-amaliy masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Shaxsiy shug'urta tushunchasi alohida kategoriya sifatida xorijiy olimlar tomonidan to'liqroq yoritilib berilganini ko'rishimiz mumkin. Jumladan David M. Dror and Alexander S. Prekerlarning fikriga ko'ra "shaxsiy sug'urta individual moliyaviy risklarni boshqarish va uzoq muddatli farovonlikni oshirishda hal qiluvchi vosita ekanligini ta'kidlaydi [1].

Jean Kwon, Harold D. "Keng ma'noda moliyaviy xizmatlar bozorida hayot, sog'liq va baxtsiz hodisalardan sug'urtalash o'rtasidagi farqni ko'rsatib, sug'urtaning iqtisodiy roli keng yoritib berishni targ'ib etgan" [2].

Shuningdek, T.A.Fedarovanning nazarida hayot sug'urtasi deyilganda "sug'urtalangan shaxs vafot etgan yoki muayyan muddatga qadar tirik qolgan holatda, to'langan sug'urta mukofotlari o'rniga sug'urta qildiruvchi yoki u tomonidan tayinlangan shaxsga sug'urtalovchi tomonidan sug'urta summasini to'lash kafolatini berishi" [3].

A.I.Xudiyakov shaxsiy sug'urta ob'ektini "sug'urta qildiruvchining yoki boshqa shaxsning moliyaviy ahvoli, sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urta to'lovini amalga oshirish orqali tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadigan darajada himoya qiladigan moliyaviy ahvoli" deb belgilaydi [4].

Mamlakatimizda sug'urta faoliyati va sug'urta bozori rivojlanishining yo'nalishlari iqtisodchi olimlar M.Asqarova, G.Axunova, H.Boyev, T.Boymurotov, O.Jo'rayev, Sh.Imomov, M.Mirsodiqov, A.Nurullayev, Y.Tursunov, M.Xodjayeva, A.Shermuhamedov, X.Shennayev, R.Husanov, A.Yadgarovlar ilmiy ishlarida tahlil qilingan. [5,6,7].

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda miqdoriy (kvantitativ) tahlil usullari asosiy metod sifatida tanlangan bo'lib, u orqali sug'urta mukofotlari va to'lovlarining yillik o'zgarishlari, ular o'rtasidagi bog'liqlik, tendensiyalar va o'zgarish sabablari aniqlanadi. Shu bilan birga, statistik va ekonometrik modellardan foydalaniladi.

Tahlil va natijalar muhokomasi.

Bugungi kunda jismoniy shaxslar moliyaviy xavflardan himoyalanişda sug'urta xizmatlariga tobora ko'proq murojaat qilmoqda. Ayniqsa, hayot, sog'liq, baxtsiz hodisalar, nogironlik va uzoq muddatli parvarish kabi xavflarni qoplovchi shaxsiy sug'urta turlari aholining ijtimoiy-iqtisodiy farovonligi bilan bevosita bog'liq. Mamlakatlarda sog'liqni saqlash tizimi, pensiya ta'minoti va ijtimoiy himoya tizimining xususiyatlari, aholining daromadlari va ishonch darajasi shaxsiy sug'urta bozorining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi.

Shu jihatdan, shaxsiy sug'urta mukofotlari (ya'ni aholining sug'urtalovchilarga to'laydigan badallari) va sug'urta to'lovlari (ya'ni hodisa yuz berganda sug'urtalanuvchiga qaytariladigan mablag') o'rtasidagi nisbat, ularning yillik o'zgarish dinamikasi va iqtisodiy omillar bilan bog'liqligi

chuqur statistik va ekonometrik tahlilni talab qiladi.

O'zbekistonda va xalqaro amaliyotda shaxsiy sug'urta mukofotlari va to'lovlari dinamikasini o'rganish, ularning asosiy omillari va o'zaro bog'liqliklarini statistik va ekonometrik usullar orqali tahlil qilishdan iborat. Shu orqali quyidagi vazifalar belgilangan:

- Shaxsiy sug'urta mukofotlari va to'lovlarining yillik o'zgarish dinamikasini statistik asosda aniqlash;
 - Ular o'rtasidagi korrelyatsiya va regressiya munosabatlarini baholash;
 - Iqtisodiy (inflyatsiya, YAIM, aholi daromadlari), demografik (yosh tuzilmasi, aholining qamrovi) va institutsional omillarning ta'sirini tahlil qilish;
 - O'zbekiston sug'urta bozori raqamlarini rivojlangan davlatlar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;
 - Siyosiy va institutsional takliflar ishlab chiqish orqali shaxsiy sug'urta segmentining samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash.
- O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslarning (hayot, sog'liq, hodisa sug'urtasi) sug'urta mukofotlari bo'yicha 2015-2024-yillarga oid mavjud statistik ma'lumotlar (mlrd. so'mda) tahlil etilgan. Diqqat – statistik ma'lumotlar davlat, xalqaro manbalar hamda sug'urta sohasidagi tergov asosida ko'plab hisob-kitoblardan olingan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozoridagi jismoniy shaxslarni sug'urtalash bo'yicha 2015-2024-yillar kesimida dinamik o'zgarishlari (mlrd. so'mda) [8]

<i>Yillar</i>	<i>Sug'urta mukofotlari</i>	<i>Sug'urta to'lovlari</i>
2015	551.5	111.0
2016	692.6	130.5
2017	927.4	269.9
2018	1,635.2	460.8
2019	2,313.9	813.5
2020	1,879.3	419.6
2021	3,015.0	618.8
2022	4,707.0	1,098.8
2023	7,737.2	1,568.5
2024	9,483.7	2,073.1

O'zbekiston sug'urta bozorida 2015–2018-yillar oralig'ida sug'urta mukofotlari miqdorida barqaror o'sish tendensiyasi kuzatilgan. Ushbu yillarda yillik o'sish sur'ati o'rtacha 20–30% atrofida bo'lgan. Bu davrda sug'urtaning bozordagi ishtirokchilari soni oshib borgan, shuningdek, aholining moliyaviy xabardorligi asta-sekin ortgan. Sug'urta mukofotlarining barqaror o'sishi, bir tomondan, sug'urtalovchilar tomonidan faol marketing siyosati olib borilgani va yangi mahsulotlar joriy etilgani bilan izohlanadi. Ikkinchi tomondan esa, aholi va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy xavflardan himoyalashga bo'lgan ehtiyoji kuchaygan.

Biroq, 2021–2024-yillar oralig'ida ushbu tendensiya yangi bosqichga o'tgan. Xususan, 2022–2023-yillar oralig'ida sug'urta mukofotlarida 64% dan ortiq o'sish qayd etilgan bo'lib, bu keskin o'zgarish sug'urta bozori faoliyatidagi jadal rivojlanish bosqichini anglatadi. Ushbu keskin o'sishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Davlat tomonidan sug'urta tizimiga bo'lgan e'tiborning kuchaygani va normativ-huquqiy hujjatlar yangilangani;
2. Elektron sug'urtalash xizmatlari va onlayn platformalarning joriy qilinishi;
3. Majburiy sug'urta turlarining kengaytirilgani va ularga bo'lgan talabning oshgani;

4. Korxona va tashkilotlarning o'z xodimlarini ijtimoiy himoyalashda sug'urtaga murojaat qilish holatlarining ko'paygani.

Bu omillar sug'urta mukofotlari hajmining keskin oshishiga xizmat qilgan va bozor ishtirokchilari sonining ko'payishiga olib kelgan.

Sug'urta to'lovlari bo'yicha o'sish esa 2017-yildan boshlab aniq ko'rinish olgan. 2015–2016 yillarda sug'urta to'lovlari nisbatan past darajada bo'lgan bo'lsa-da, 2017-yildan e'tiboran bu ko'rsatkichda sezilarli ko'tarilish kuzatilmoqda. Jumladan, 2017-yildagi 269,9 mlrd. so'mlik to'lovlar 2016-yilga nisbatan deyarli ikki barobar ortgan. Ushbu holat, birinchi navbatda, aholining sug'urta da'volarini topshirish faolligi oshganini, ikkinchidan esa sug'urta kompaniyalari tomonidan majburiyatlarning bajarilishi darajasi yaxshilangani va mijozlarga bo'lgan ishonchning kuchayganini anglatadi.

2021–2024-yillar davomida sug'urta to'lovlari hajmi ham jadal sur'atlarda ortib borgan. Bu esa bozorning faqat mukofotlar yig'ishda emas, balki haqiqiy xavf yuzaga kelgan paytda o'zining asosiy funksiyasini – moliyaviy yo'qotishlarni qoplashni muvaffaqiyatli bajarayotganini ko'rsatadi. To'lovlarning oshishi, shuningdek, sug'urtalovchi tashkilotlar tomonidan xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish bo'yicha olib borilgan islohotlar bilan ham bevosita bog'liq.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozoridagi jismoniy shaxslarni sug'urtalash bo'yicha umumiy dinamik tahlil (mlrd. so'mda) [8]

Ko'rsatkich	2015 y.	2024 y.	O'sish (%)
Sug'urta mukofotlari	551.5 mlrd. UZS	9,483.7 mlrd. UZS	1620%
Sug'urta to'lovlari	111.0 mlrd. UZS	2,073.1 mlrd. UZS	1767%

10 yillik davr mobaynida, ya'ni 2015-yildan 2024-yilgacha bo'lgan oraliqda O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozorida jismoniy shaxslarning ishtirokida amalga oshirilgan sug'urtalash jarayonlari sezilarli

darajada kengaydi. Bu davr mobaynida sug'urta mukofotlari hajmi 551,5 mlrd. so'mdan 9 483,7 mlrd. so'mgacha oshdi, ya'ni 17 baravardan ko'proqqa o'sdi. Bu o'sish sug'urta xizmatlariga bo'lgan talabning ortganini,

aholining moliyaviy xabardorlik darajasining oshganini hamda iqtisodiy barqarorlik sharoitida sug'urtaga bo'lgan ishonchning mustahkamlanayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, sug'urta to'lovlari ham 111,0 mlrd so'mdan 2 073,1 mlrd. so'mgacha ko'tarilib, deyarli 19 baravar o'sdi. Ushbu ko'rsatkich sug'urta kompaniyalari tomonidan real da'volarni qoplashda faol va samarali ishlayotganidan dalolat beradi. Bu esa fuqarolarning sug'urtalash tizimidan foydalanish faolligi oshganini va ular tomonidan taqdim etilayotgan xizmatlarning foydasi real iqtisodiy natijalar bilan tasdiqlanayotganini ko'rsatadi.

Linear regression

Sugurtatolovlari	Coef.	St.Err.	t-value	p-value	[95% Conf	Interval]	Sig
Sugurtamukofotlari	.207	.013	16.55	0	.178	.236	***
Constant	74.747	55.106	1.36	.212	52.327	821	
Mean dependent var	756.445		SD dependent var		647.936		
R-squared	0.972		Number of obs		10		
F-test	273.932		Prob > F		0.000		
Akaike crit. (AIC)	125.179		Bayesian crit. (BIC)		125.784		

*** $p < .01$, ** $p < .05$, * $p < .1$

Ma'lumotlar asosida tuzilgan bo'yicha OLS modeli:

Umumiy tenglama:

$$Y = \beta_0 + \beta_1 X + \varepsilon Y$$

Bu yerda:

Y – bog'liq o'zgaruvchi (bizda: **Sug'urta to'lovlari**)

Regressiya tenglamasi:

Sug'urta to'lovlari

$$= 74.747$$

$$+ 0.2069$$

$$\times \text{Sug'urta mukofotlari}$$

XX – mustaqil o'zgaruvchi (bizda:

Sug'urta mukofotlari)

β_0 – intercept (erkin had)

β_1 – regressiya koeffitsienti (X ning Y ga ta'siri)

ε – xatolik (residual)

Model tafsilotlari:

Ko'rsatkich	Natija	Izoh
Coefficient (β)	0.207	Ijroiy bog'liqlik mavjud
t-value	16.55	Juda yuqori (ko'rsatkich muhimligini bildiradi)
p-value	0.000	< 0.01 -statistik jihatdan juda muhim
R-squared (R^2)	0.972	Mukofotlar to'lovlardagi dispersiyaning 97.2% ini tushuntiradi
F-test	273.972	Model umumiy ahamiyatga ega
AIC/BIC	125.179 / 125.784	Model tanlovi uchun – past bo'lishi yaxshi

Yuqoridagi oddiy chiziqli regressiya modeli tahlili asosida O'zbekiston sug'urta bozorida jismoniy shaxslarning sug'urtalash faoliyati bilan bog'liq asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar — ya'ni sug'urta mukofotlari va sug'urta to'lovlari o'rtasidagi chiziqli bog'liqlik aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu ikki o'zgaruvchi o'rtasidagi bog'liqlik nafaqat iqtisodiy jihatdan izchil, balki statistik jihatdan ham ishonchli ekanligi bilan ajralib turadi.

Regressiya koeffitsienti ijobiy qiymatga ega bo'lib, bu sug'urta mukofotlari oshgani sari sug'urta kompaniyalari tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar ham izchil tarzda ortib borishini ko'rsatadi. Bu holat, o'z navbatida, sug'urta sohasining ichki iqtisodiy mantiqiga to'la mos keladi: sug'urta kompaniyalari yig'ilgan mukofotlar evaziga o'z zimmasiga olgan xavflarni qoplash imkoniyatini oshiradi. Ya'ni mukofotlar – bu kompaniyaning riskni sug'urta qilishdagi "resursi" bo'lsa, to'lovlar – bu risk yuz berganida amalga oshiriladigan moliyaviy majburiyatdir.

Modelning R-kvadrat (R^2) ko'rsatkichi 0.972 ga teng bo'lib, bog'liq o'zgaruvchining (sug'urta to'lovlari) deyarli to'liq qismi (97.2%) mustaqil o'zgaruvchi (sug'urta mukofotlari) bilan tushuntirilishini anglatadi. Bu esa

modelni amaliy tadqiqotlarda, tahlil va prognozlashda yuqori aniqlikdagi vosita sifatida foydalanishga asos bo'ladi.

P-qiymatning juda past (0.000) darajada bo'lishi regressiya modelining statistik ahamiyatini tasdiqlaydi va natijalarni tasodifiy omillar emas, balki kuchli iqtisodiy bog'liqlik shakllantirayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, AIC va BIC mezonlari modelda ortiqcha o'zgaruvchilar yo'qligini va uning optimal tuzilganini bildiradi. Ushbu model sug'urta sohasi rivojlanishining chuqur tahlilini amalga oshirish, risklarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish, shuningdek, kelgusida bozorning moliyaviy hajmini bashorat qilishda asosiy vosita sifatida xizmat qilishi mumkin. Xususan, 2025–2030 yillarda kutilayotgan sug'urta mukofotlari hajmi asosida to'lovlar hajmini prognoz qilish va bu orqali sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ushbu modeldan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu sababli, bu regressiya tahlili nafaqat mavjud iqtisodiy tendensiyalarni ochib beradi, balki strategik rejalashtirish, moliyaviy monitoring va siyosat ishlab chiqishda muhim vosita sifatida qaralishi lozim.

3-jadval

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozoridagi jismoniy shaxslarni sug'urtalash bo'yicha OLS regression model asosida pragnoz tahlil (mlrd. so'mda) [8]

Yil	Sug'urta mukofotlari	Prognoz qilingan sug'urta to'lovlari
2025	11 570,1	2 469,0
2026	14 115,5	2 995,7
2027	17 220,9	3 638,4
2028	21 009,6	4 422,4
2029	25 631,7	5 378,8
2030	31 270,6	6 545,7

3-jadvaldagi prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston sug'urta bozorining jismoniy shaxslar segmentida 2025–2030-yillar davomida barqaror va izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'lishini yaqqol aks ettiradi. Sug'urta mukofotlari hajmining

yildan-yilga ortib borayotgani aholining moliyaviy himoyaga, ayniqsa xavf omillarini boshqarish vositalariga bo'lgan ishonchi mustahkamlanayotganini bildiradi.

Shu bilan birga, prognoz qilingan sug'urta to'lovlarining ortib borishi sug'urta

tizimining real iqtisodiy jarayonlarda faol ishlayotganini, ya'ni da'volarni amalda qoplab berayotganini tasdiqlaydi. 2030-yilga kelib sug'urta mukofotlari hajmining salkam 31 trillion so'mga yetishi, sug'urta to'lovlari esa 6,5 trillion so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda.

Bu esa nafaqat moliyaviy resurslar hajmining ortishi, balki bozor infratuzilmasining chuqurlashgani, aholining

iqtisodiy xatti-harakatlarida moliyaviy ehtiyotkorlik madaniyatining kuchayganini ham ko'rsatadi.

Jadvalda aks ettirilgan prognozlar 1-rasm va ekonometrik regressiya modeli natijalari bilan uzviy bog'liq bo'lib, strategik rejalashtirish va xavf menejmenti uchun ishonchli asos bo'lib xizmat qiladi.

4-jadval

O'zbekiston Respublikasi sug'urta bozoridagi jismoniy shaxslarni sug'urtalash bo'yicha 2015-2024 yillar kesimida rentabillik darajasi dinamikasi [8]

Yillar	Sug'urta mukofotlari	Sug'urta to'lovlari	Rentabillik
2015 y.	551,5	111,0	397%
2016 y.	692,6	130,5	431%
2017 y.	927,4	269,9	244%
2018 y.	1 635,2	460,8	255%
2019 y.	2 313,9	813,5	184%
2020 y.	1 879,3	419,6	348%
2021 y.	3 015,0	618,8	387%
2022 y.	4 707,0	1 098,8	328%
2023 y.	7 737,2	1 568,5	393%
2024 y.	9 483,7	2 073,1	357%

4-jadvalda O'zbekiston sug'urta bozorida jismoniy shaxslarni sug'urtalash faoliyati bo'yicha 2015-2024-yillar oralig'ida sug'urta mukofotlari, to'lovlari va ularning asosida hisoblangan rentabellik darajasi aks ettirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu davr mobaynida sug'urta tizimi barqaror va yuqori foydalilik bilan ishlagani kuzatiladi. Ushbu yillarda rentabellik mos ravishda 397% va 431% ni tashkil etgan bo'lib, bu davrda sug'urta to'lovlari nisbatan past, mukofotlar esa ularga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo'lgan. Bu bozor faoliyatining boshlang'ich bosqichlarida aholi tomonidan da'volar nisbatan kam rasmiylashtirilgani va kompaniyalar xarajatlarining cheklangani bilan izohlanadi.

Shu yillarda rentabellik ko'rsatkichlari sezilarli darajada pasaygan bo'lsa-da (244%, 255%, 184%), baribir ijobiy darajada qolgan. Ayniqsa 2017-yilda sug'urta to'lovlarining

birdaniga 100 mlrd so'mdan ko'proqqa ko'tarilgani (2016-yildagi 130.5 dan 2017-yilda 269.9 mlrd. so'mga) kompaniyalar uchun real xavfni boshqarish boshlanganidan dalolat beradi. Bu davr bozor faoliyatida amaliy sug'urta mexanizmlari kengaygan davr sifatida talqin etilishi mumkin.

Bu shuni ko'rsatadiki, sug'urta kompaniyalari to'lovlar hajmini oshirganiga qaramay, mukofotlar ulardan katta farq bilan ustun bo'lib qolmoqda. Aholining ishonchi ortgan, xizmat turlari kengaygan va raqamli texnologiyalar sug'urtalash faoliyatini tezlashtirgan. Bozor sharoitida real faoliyat yuritish, xavflarni qoplash va foyda olish o'rtasida sog'lom muvozanat saqlangan.

4-jadval tahliliga tayangan holda xulosa qilish mumkinki, 2015-2024-yillar davomida O'zbekiston sug'urta bozori jismoniy shaxslar segmentida moliyaviy barqarorlik va yuqori

rentabellik darajasi bilan ajralib turgan. Sug'urta mukofotlari va to'lovlari o'rtasidagi tafovut yil sayin oshganiga qaramay, kompaniyalar o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarishda faol bo'lib qolmoqda. Rentabellik ko'rsatkichining har yili ijobiy va yuqori darajada saqlanishi esa bozorning foydali ishlayotganini va tizimning samarali boshqarilayotganini ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida statistik, analitik, qiyosiy, kuzatuv, induktiv, deduktik, mantiqiy, monitoring va boshqa tahlil usullaridan foydalanildi. O'rganilgan adabiyotlar natijasida mavzu to'liq yoritib berildi. Mavzu yuzasidan tegishli jadvallar shakllantirildi va tahlil qilindi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, 2015–2024 yillar oralig'ida O'zbekiston sug'urta bozorida shaxsiy sug'urta xizmatlari sezilarli darajada rivojlangan. Sug'urta mukofotlari va to'lovlari o'rtasidagi nisbat yil sayin izchil oshib borib, bozor ishtirokchilarining faolligi, aholi ishonchining ortgani, moliyaviy madaniyat darajasining yuksalayotganini yaqqol ko'rsatmoqda. Sug'urta to'lovlari bo'yicha ijobiy dinamikani kuzatish imkon berdi va bu fuqarolarning real da'volarining ko'paygani hamda sug'urta kompaniyalarining majburiyatlarni bajarishdagi faolligini tasdiqlaydi.

Chiziqli regressiya modeli orqali aniqlangan o'zaro bog'liqlik, sug'urta mukofotlari va to'lovlari o'rtasida kuchli statistik ahamiyatga ega ijobiy munosabat mavjudligini ko'rsatdi. Regressiya koeffitsientining ijobiy va sezilarli bo'lishi, sug'urta mukofotlari oshgani sari to'lovlar hajmi ham ortib borayotganini anglatadi. Bu esa sug'urta tizimining barqaror va ishonchli ishlayotganining muhim dalilidir.

2030-yilgacha tuzilgan prognozlar sug'urta bozorida izchil o'sish kutilayotganini tasdiqlaydi. Bozorning yuqori rentabellik darajasini saqlab qolayotganligi esa kompaniyalar uchun foydali sharoit

shakllanganini bildiradi. Shu bilan birga, bu yutuqlar raqamlashtirish, huquqiy asoslarning mustahkamlanishi va moliyaviy xabardorlik darajasining ortib borishi bilan bog'liq. Ushbu xulosaga asoslanib, quyidagi takliflarni keltirib o'tamiz:

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish. Shaxsiy sug'urta xizmatlaridan kengroq foydalanishni ta'minlash uchun aholiga sug'urta tizimining afzalliklari haqida muntazam targ'ibot-tashviqot ishlari olib borish zarur.

Sug'urta xizmatlari diversifikatsiyasini kengaytirish. Hayot, sog'liq, mehnatga layoqatlilik bilan bog'liq sug'urta mahsulotlarining ko'lamini kengaytirish aholining turli ehtiyojlariga mos yechimlar taklif etadi.

Sug'urtalash jarayonini to'liq raqamlashtirish. Onlayn platformalar orqali shartnoma tuzish, to'lovlarni qabul qilish va da'volarini ko'rib chiqish jarayonlarini soddalashtirish xizmat sifatini oshiradi.

Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish. Sug'urta mukofotlari va to'lovlari bo'yicha ma'lumotlarning ochiqligini oshirish, xalqaro standartlarga moslashtirish bozorning jozibadorligini kuchaytiradi.

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash. Kompaniyalar kapital bazasini mustahkamlash, qayta sug'urtalash amaliyotlarini kengaytirish orqali risklarni yanada samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish. Sug'urta bozorida kichik kompaniyalarni rag'batlantirish, subsidiyalar, soliq imtiyozlari orqali yangi xizmat turlarini joriy etish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Sug'urta faoliyati ustidan monitoring va nazorat tizimini kuchaytirish. Kompaniyalar faoliyati samaradorligini doimiy baholab borish, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sug'urta tizimining ishonchliligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. David M. Dror and Alexander S. Preker "Social Reinsurance" A New Approach to Sustainable Community Health Financing - Washington, D.C., 2002.
2. Jean Kwon, Harold D. "Risk Management & Insurance by W. Skipper" [Hardcover] Hardcover - January 1, 2007.
3. Федарова А.Т. ва бошқалар. Страхование (2-нашр). М.:Магистр, 2006. 251 б.
4. Худяков А.И. Теория страхования. - М.: «Статут», 2010 - С.428.
5. Yadgarov A.A. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sug'urta tizimi. - Toshkent. Yangi asr avlodi,- 2005
6. Shermuhammedov A., Oxunova G., Jo'rayev O. Xalqaro transport sug'urtasi.-T.:TDIU, 2000.
7. Shennayev X. Sug'urta bozori nima?// O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi.-Toshkent 1998.
8. <https://napp.uz/uz/pages/report-forms> sayt ma'lumotlari.